

**TAMOM BO`LMAGAN JINOYATLAR UCHUN JAZO
TAYINLASHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Jasurbek Do'smatov Umidjon o'g'li
Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi
Bosh mutaxassisi

Annotatsiya: To'g'ri va adolatli jazo tayinlash odil sudlovning asosiy tamoyillaridan biridir. Jinoyatga nisbatan haddan tashqari yengil yoki og'ir jazo qo'llash nafaqat mahkumning, balki jamiyatning ham adolatga bo'lgan ishonchini susaytirishi mumkin. Shu sababli, sudlar jinoyatning og'irligi, jinoyatchining shaxsiyati, aybini tan olishi, qilmishining oqibatlari va boshqa yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarni har tomonlama baholashi lozim.

Shuningdek, jazoni belgilashda uning faqat jazolash vositasi sifatida emas, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish va jamiyatda qonunga hurmat tuyg'usini oshirishga xizmat qilishi ham muhimdir. Shu tariqa, sudlar tomonidan jazoning to'g'ri belgilanishi jinoyatchilikka qarshi kurashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu tezisda tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jazo tayinlash, tamom bo'lgan jinoyat, tamom bo'lmagan jinoyat, jazo.

Jazo tayinlash – sud tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsga qonuniy asosda jazoni belgilash jarayoni bo'lib, u jinoyat huquqining asosiy institutlaridan biridir. Sud jazo tayinlashda qonunchilik talablariga amal qilishi bilan birga, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi. Jazo tayinlashning maqsadi nafaqat jazolash, balki jinoyatchini qayta tarbiyalash, uning ijtimoiy xavfliligini kamaytirish va huquqbuzarliklarning oldini olishdan iboratdir.

Jinoyat huquqida jinoyatning tamomlanganligi yoki tamom bo'lmaganligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holatlar sud tomonidan jazo tayinlashda hisobga olinadi. Tamom bo'lmagan jinoyatlar jinoyatning oxirigacha yetkazilmagan shakli bo'lib, bunda shaxsning aybi bor, ammo huquqbuzarlik to'liq amalga oshirilmagan bo'ladi. Tamom bo'lgan jinoyat esa huquqiy jihatdan jinoyat barchi tarkib alomatlari sodir etilgan va oqibatlar yuzaga kelgan holatni anglatadi

Tamom bo'lmagan jinoyatlarga jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish kiradi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishda jinoyat qonun bilan himoyalangan obyektga hali tajovuz qilinmagan bo‘ladi. Bunda, jinoyat sodir etish uchun kerakli vositalar yoki sharoitlar yaratish amalga oshiriladi, ammo obyektga nisbatan hujum boshlanmaydi. Agar shaxsning harakatlari, jinoyatni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaydigan tashqi (shaxsga bog‘liq bo‘lmagan) sabablar tufayli to‘xtasa, bu jinoyat tayyorgarlik hisoblanadi.

Jinoyatga sodir etishga suiqasd qilish esa, jinoyat qonuni bilan himoyalangan obyektga hujumning boshlanishini anglatadi. Bunda, jinoyatning boshlanishi sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, bu jarayon shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlar sababli oxiriga yetkazilmaydi. Yani, suiqasd qilish jarayoni boshlanadi, lekin tashqi omillar tufayli to‘xtaydi yoki to‘liq amalga oshmaydi. Masalan: B ismli shaxs F ismli shaxsni qasdan o‘ldirish maqsadida uning ikki marta pichoq bilan zarba beradi. Ammo shifokorlarning unga bergan yordami natijasida F ismli shaxsning hayoti saqlanib qolinadi. Bu yerda B ismli shaxsning harakatlariga boshqa shaxsning hayotiga suiqasd qilish kabi huquqiy baho bersak bo‘ladi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyatga sodir etishga suiqasd qilish faqat qasdan sodir etiladigan jinoyatlardagina bo‘lishi mumkin.

Sud tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash jarayonida umumiy jazo belgilash umumiy qoidalariga amal qiladi. Shu bilan birga, u jinoyatning og‘irligi yoki yengilligini, shaxsning jinoiy niyatini qanchalik amalga oshira olganini va ushbu jinoyatning to‘liq bajarilmay qolishiga olib kelgan sabablarni ham batafsil tahlil qiladi. Bunda sud jinoyatning yakunlanmasligiga shaxsning o‘z xohishi sabab bo‘lganmi yoki tashqi omillar ta’sir qilganmi, degan masalani ham e’tiborga oladi.

Sud tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda, jazoning muddati va miqdori Jinoyat kodeksi maxsus qismi aynan bir moddasi yoki qismida tamom bo‘lgan jinoyatlar uchun nazarda tutilgan jazo turining eng maksimal muddatining to‘rtidan uch qismidan oshmasligi kerak. Masalan: Jinoyat kodeksi 97-moddasi 1-qismida tamom bo‘lgan jinoyatlar uchun eng maksimal muddat o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish belgilangan. Ayni shu turdagi ya’ni A shaxs B shaxsning hayotiga qasdan suiqasd qilgan bo‘lsa, ushbu qilmish tamom bo‘lmagan jinoyat bo‘lgani uchun jazo ushbu maksimal muddatning to‘rtidan uch qismidan oshmasligi kerak.

Mazkur qoida quyidagilar nisbatan qo‘llanilmaydi:

a) o‘ta xavfli retsdivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a’zolariga nisbatan;

b) tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek quyidagilar bilan:

javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish bilan;

o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo‘rlilik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan;

o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan;

voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish bilan;

voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalarni tashkil etish yoki saqlash bilan;

yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabanda qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar uchun.

Ya`ni ushbu yuqorida sanab o‘tilgan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilingan bo‘lsa ham ularga ushbu yuqoridagi qoida qo‘llanilmaydi.

Tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilmaydi.

Agar tamom bo‘lmagan jinoyatlarni ayollar va oltimish yoshdan oshgan erkaklar sodir qilsa va sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish jazo tayinlansa, ushbu jazo turining muddati jinoyat kodeksi 50-moddasida ushbu shaxslar uchun tayinlanishi nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi muddatining to‘rt dan uch qismidan oshmasligi kerak.

Ya`ni ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga hamda oltimish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati jinoyat kodeks maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko‘p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jinoyat kodeksi.
2. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: ILM-ZIYO”, - muharrir: y.f.d F.To‘hironov. – T.: 2013.
3. Ochilov H.R., Turg‘unboyev E.O. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O‘quv-uslubiy qo‘llanma //mas’ul muharrir: y.f.d. F.To‘hironov. – T.: 2013.